

ARAB VA INGLIZ TILLARIDA KO'RSATISH OLMOSHLARI

Hoshimova Ruxshona Adhamjon qizi

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Arabshunoslik Oliy maktabi arab-ingliz filologiyasi 1- kurs

hoshimovaruxshona3@gmail.com

88 925 25 06

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17247852>

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab va ingliz tillaridagi ko'rsatish olmoshlari haqida ma'lumotlar beriladi. Ularning farqi va o'xshashliklari xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ko'rsatish olmoshlari, demonstrative pronouns, الضمائر الإشارية, arab tili, ingliz tili

Аннотация: В этой статье представлена информация об указательных местоимениях в арабском и английском языках, рассматриваются их различия и сходства.

Ключевые слова: указательные местоимения, demonstrative pronouns, الضمائر الإشارية, арабский, английский

Annotation: This article provides information about demonstrative pronouns in Arabic and English. It discusses their differences and similarities

Keywords: demonstrative pronouns, الضمائر الإشارية, arabic, english

Ma'lumki, arab va ingliz tillari dunyodagi eng ko'p tarqalgan va o'rganilayotgan tillardan bo'lib, har ikkisi o'ziga xos grammatik tizimga, fonetik tuzilishga va leksik boylikka ega. Arab tili xom-som tillar oilasiga mansub bo'lib, morfologik jihatdan boy va fleksiyalashgan tuzilishga ega. Ingliz tili esa german tillari guruhiga kiradi va analitik, ya'ni grammatik munosabatlar asosan yordamchi so'zlar va so'z tartibi orqali ifodalanadigan til sifatida ajralib turadi. Bu ikki til orasida ko'plab farqli jihatlar mavjud bo'lishiga qaramay, ayrim umumiyliklar ham kuzatiladi. Jumladan, har ikki tilda gap tuzilishida subyektning mavjudligi, aniqlik va mavhumlik kategoriyalarining mavjudligi, shuningdek, olmoshlar tizimi tilshunoslikda alohida o'rin egallaydi. Ayniqsa, ko'rsatish olmoshlari har ikki tilda ham muhim vazifani bajaradi.

Ko'rsatish olmoshlari – shaxs, predmet, hodisa yoki belgining nutqdagi boshqa obyektlardan ajratib ko'rsatish, ularning joylashuvi yoki unga bo'lgan e'tiborni aniqlashtirish uchun xizmat qiladigan olmosh turidir.

Arab tilida ko'rsatish olmoshlari (الضمائر الإشارية) yaqin yoki uzoq joyda joylashgan shaxs, predmet yoki hodisani aniq ko'rsatish uchun ishlatiladigan maxsus olmoshlardir. Arab tilidagi ko'rsatish olmoshlarining o'ziga xosligi shundaki, u qaysi predmetni ko'rsatib kelsa, o'sha predmetning jinsiga, soniga, odamni yoki boshqa predmetni bildiruvchi so'z ekanligiga qarab o'zgaradi. Masalan: الكiosk. 26-bet. Yusubov ibrohimov)

- هَذَا الطالب bu talaba

- هَذِهِ الخُفَّةُ bu xona

Yuqoridagi misollarda talaba va xona so'zlari ikki xil jinsga mansub, shuning uchun ularga turli xil ko'rsatish olmoshlari qo'llaniladi.

Ko'rsatish olmoshlari 2 xildir:

1. Yaqindagi predmetga nisbatan qo'llanadigan ko'rsatish olmoshlari. Bular o'zbek tilidagi "bu", "shu", "mana bu", "mana shu" so'zlariga to'g'ri keladi. Bu olmoshlar ko'rsatiluvchi predmetning jinsi va soniga qarab, quyidagi variantlarda qo'llaniladi:

Jins	Birlik	Ikkilik	Ko'plik
mz.	هَذَا	هَذَانِ	هَؤُلَاءِ
mn.	هَذِهِ	هَئَاتَانِ	هَؤُلَاءِ

Masalan:

- هَذَا الْكِتَابُ bu kitob
- هَذِهِ الشَّقَّةُ bu kvartira

Ko'plikda qo'llaniladigan هَؤُلَاءِ so'zi faqatgina odamlar uchun ishlatiladi. Hayvon va predmetlarning ko'pligi uchun muannas birlikdagi هَذِهِ olmoshini ishlatamiz. Masalan:

- هَذِهِ الْكُتُبُ bular kitoblar
- هَذِهِ الْمَجَلَّاتُ bular jurnallar

2. Uzoqdagi predmetga nisbatan qo'llanadigan ko'rsatish olmoshlari. Bular o'zbek tilida "u", "o'sha", "ana o'sha" kabi so'zlarga to'g'ri keladi va ular quyidagi variantlarga ega:

Jins	Birlik	Ikkilik	Ko'plik
mz.	ذَلِكَ	ذَانِكَ	أُولَئِكَ
mn.	تِلْكَ	تَانِكَ	أُولَئِكَ

Masalan:

- ذَلِكَ الْكِتَابُ o'sha kitob
- تِلْكَ الشَّقَّةُ o'sha kvartira

Ko'plikdagi predmet va hayvonlar uchun هَؤُلَاءِ olmoshi ishlatiladi. Masalan:

- هَؤُلَاءِ الْكُتُبُ o'shalar kitoblar
- هَؤُلَاءِ الْمَجَلَّاتُ o'shalar jurnallar

Ko'rsatish olmoshlaridan faqatgina ikkilik sondagi olmoshlargina kelishikda turlanadi, qolganlari o'zgarishsiz ishlatiladi.

Kelishik	Muzakkar	Muannas
Bosh kelishik	هَذَانِ	هَئَاتَانِ
Qaratqich va tushum kelishigi	هَؤُنَيْنِ	هَئَاتَيْنِ

Masalan:

- هَذِهِ الْكِتَابُ bu kitobni o'qidim
- هَذَيْنِ الْكِتَابَيْنِ bu ikki kitobni o'qidim
- هَذِهِ الطَّالِبَةُ bu talaba qiz bilan birga
- هَئَاتَيْنِ الطَّالِبَتَيْنِ bu ikki talaba qiz bilan birga

Ingliz tilida ko'rsatish olmoshlari (demonstrative pronouns) – this (bu, shu, mana shu, mazkur), that (u, o'sha, anovi), such (bunday, shunday, bunaqa), same (o'sha, aynan o'sha).

This, that ko'rsatish olmoshlari birlik formada bo'lib, ularning ko'plik formalari – these, those. (kioska.88- bet 1072)

This va these olmoshlari yaqin masofadagi narsalar uchun ishlatiladi. Masalan:

This is my book - bu mening kitobim

These are my friends - bular mening do'stlarim

That va those olmoshlari esa uzoqdagi narsalar uchun qo'llaniladi. Masalan:

That is his house - u uning uyi

Those are her flowers - ular uning gullari

Ko'rsatish olmoshlari (demonstrative pronouns) olmosh-sifat va olmosh-ot bo'lib keladi.

Masalan:

This is a pen - bu ruchkadir

This pen is blue - bu ruchka ko'kdir

Ko'rsatish olmosh-sifatlari otning ko'rsatkichi bo'lganligi uchun ulardan keyin kelgan ot oldida artikl ishlatilmaydi. Agar ko'rsatish olmoshidan keyin kelgan otning boshqa aniqllovchisi bo'lsa, ko'rsatish olmoshi, boshqa ko'rsatkichlarga o'xshab, o'sha aniqllovchidan oldin qo'yiladi.

Masalan:

He lives in that house - u o'sha uyda yashaydi

He lives in that white house - u o'sha oq uyda yashaydi (kioska. learnenglish.urdu uz)

Ko'rsatish olmoshlari vaqtga nisbatan ham ishlatilishi mumkin. Bunda this hozirgi zamon uchun, that o'tgan va kelasi zamon uchun ishlatiladi. Masalan:

I am busy at this time - men hozir bandman

We had a lot of rain that summer - o'sha yozda yomg'ir ko'p bo'ldi

That ko'rsatish olmoshi butun bir gapni yoki situatsiyani ifodalovchi matn qismi o'rnida kelishi mumkin. Masalan, so'zlovchi qandaydir voqea haqida gapirganidan keyin tinglovchi who told you that? (buni sizga kim aytdi?) deb so'rasa, that ko'rsatish olmoshi o'sha voqeani ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, arab va ingliz tillarida ko'rsatish olmoshlari tildagi muhim ko'rsatkich birliklaridan biri bo'lib, ular orqali nutq ishtirokchilari o'zaro anglashuvni ta'minlaydi. Har ikkala tilda ham ko'rsatish olmoshlari ma'lum bir predmet yoki shaxsni fazodagi joylashuviga qarab aniqlashda xizmat qiladi. Biroq, arab tilida ushbu olmoshlar jins va sonning barcha grammatik shakllariga moslashgan murakkab sistema asosida ishlatilsa, ingliz tilida ular son va masofaga asoslangan soddaroq tuzilishga ega.

Arab va ingliz tillarida ko'rsatish olmoshlarini taqqoslab o'rganish zamonaviy tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu mavzuning dolzarbligi ikki til orasidagi grammatik tafovutlarni chuqur anglash, tarjima jarayonini takomillashtirish va til o'rganishda samaradorlikni oshirish bilan bevosita bog'liqdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. N.Ibrohimov. Arab tili grammatikasi 1-qism. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi".:T-1997.
2. Abdujabborov A. Arab tili. Darslik. - Toshkent, 2005
3. O.Yusupov. Ingliz tili grammatikasidan universal qo'llanma. "Akademnashr".:T- 2013.
4. Cambridge English in Use (Murphy) – 2019.
5. N.Yo'ldoshev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.
6. learnenglish.urdu.uz